

“MUNSHAOT” MAKTUBLARIDA SHE’RIY SHAKLLARNING BERILISHI (QIT’ALAR MISOLIDA)

Gulira’no Xolmatova

TDSHU 1- kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Munshaot” asaridagi maktublarda she’riy shakllarning berilishi, xususan, qit’alar tahlil qilindi. Shu bilan birga ularning xat mazmuniga ta’siriga katta e’tibor berilib, ma’nolari izohlandi.*

Kalit so’zlar: *munshaot, maktub, Alisher Navoiy, qit’a, murofia, tanosub, ishtiyoq, takrir, insho san’ati.*

Abstract: *In this article, the presentation of poetic forms, especially the continents, in the letters of Alisher Navoi's work "Munshaot" was analyzed. At the same time, great attention was paid to their influence on the content of the letter and their meaning was explained.*

Key words: *munshaot, letter, Alisher Navoi, continent, murofia, proportion, enthusiasm, takrir, essay art.*

KIRISH

Alisher Navoiy adabiy merosi janr va tur jihatidan rang-barang. U, avvalo, lirik shoir sifatida jahon adabiyotidan munosib o‘rin egallagan va qator nasriy asarlari bilan ham turkiy xalqlar adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Shoir qalamiga mansub “Munshaot” asari o‘zbek nasrining go‘zal namunasi hisoblanadi. U insho san’atining turkiy tildagi ilk ko‘rinishi sifatida ham qimmatlidir. Navoiy ushbu asarining muqaddimasida fors adabiyotida bu janr shakllangan yuksak uslubga ega ekanini, turkiy xalqlarda bu uslubda hali hech ish qilinmaganini va o‘zi “Munshaot”ga birinchi bo‘lib qo‘l urganini qayd qilgan [Муншаот, 2016: 108]. Zero, unda buyuk mutafakkir va davlat arbobining serqirra faoliyati davomida turfa holatlar va turlicha sabablar taqozosi bilan yuzaga kelgan maktublar jamlangandir.

Bu maktublarda yuborilayotgan manzil va shaxs nomi hamda xatning yozilish sanasi ko‘rsatilmagan. Adresatlar o‘rniga maktublarni bir-biridan farqlash uchun ularga raqamlar qo‘yib chiqilgan.

Nazmiy o‘rinlarida Navoiy ruboiy, masnaviylar bilan birga qit’alardan ham foydalanadi. Ma’lumki, qit’a ijodkorning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi kichik lirik janrlardan biri bo‘lib, Alisher Navoiy ijodida qit’a janriga oid baytlar salmoqli hajmga ega. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tarkibida qat’iy tizim asosida joylashtirilgan qit’alarda ijodkorning jamiyatdagi ma’lum voqea-hodisaga munosabati bilan birga, axloqiy-falsafiy va

ta'limiy qarashlari aks etgan. Shuningdek, qit'a nasriy asarlarda ma'lum bir masala haqidagi fikr mulohazalarga yakun sifatida "qissadan hissa" tarzida keltirilgan [Sirojiddinov va boshq., 2019: 323]. Jumladan, "Munshaot"da ham.

Navoiy ijodidagi qit'alar qit'a qonuniyatiga ko'ra b-a, s-a tarzidagi qofiya tizimiga asoslangan. Undan tashqari masnaviy shakli asosidagi qit'alar (a-a, b-b, s-s...) ham uchraydi. Adabiyotshunoslikda ularni qit'adan ko'ra masnaviy deb atash to'g'riroq, degan fikr bildirilgan [Исҳоқов Ё., 2014: 274].

Asosiy qism. Alisher Navoiy qit'alarini mavzusiga ko'ra shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: ijtimoiy hayot masalalari aks etgan falsafiy-axloqiy mazmundagi qit'alar va muayyan davr voqea-hodisalari hamda u yoki bu guruh vakillari faoliyati haqidagi qit'alar. Xususan, "Munshaot"ning 73-xatidagi quyidagi qit'ada shahzoda madhi va o'zining unga bildirgan tilaklarini ifoda etgan:

Talab bahorida bog'ingki, gulbun etti ayon,

Bu gulbunungg'a dag'i toza gullar ochilsun.

Umid bog'ida ekding, nihol-u gul berdi,

Gulungni haq karami emdi borvar qilsun [Муншаот, 2016: 108].

Bu qit'a keltirilgan maktub Q. Ergashev tasnifiga ko'ra, murofia yo'sinida bitilgan bo'lib, madh – muddao – duo shaklidir. "Munshaot" dagi maktublarning ko'pchiligini sultonga va shahzodalarga yozilgan xatlar tashkil etadi. Shu sababli murofia usulida yozilgan xatlar ko'proqdir. Ushbu xatning shahzoda Badiuzzamonga atalganini maktub boshidagi quyidagi bayt ko'rsatib turibdi:

"Dahrg'a bersun mudom maqdamidin zebu zayn,

Shoh Muhammad Bade' ibni Muzaffar Husayn" [Муншаот, 2016: 108].

Baytdan keyin yuqoridagi qit'a shahzodani madh qilish uchun keltirilgan. Ma'lumki, Badiuzzamon Husayn Boyqaroning 14 o'g'li orasida to'ng'ichi edi. Badiuzzamon ular orasida eng oqili va tadbirkori bo'lib, taqvodor, adolatpesha hamda ilm-u ma'rifat va hunar ahliga muruvvatli hukmdor edi. U o'z saroyida olim, shoir, san'atkor va boshqalarni yig'ib anjumanlar o'tkazib turardi. Shuning bilan birga, u o'zi ham go'zal g'azallar bitgan, mamlakatda qurilish-obodonchilik ishlariga katta e'tibor berganligi ilmiy adabiyotlarda ta'kidlangan. Alisher Navoiy Badiuzzamonni quyidagicha ta'riflagan: «Sulton Badiuzzamon Mirzo husni surat va husni siyrat bila orasta va jamoli zohiriy va kamoli botiniy bila piyrosta yigitdur. Razm atvoridin otar-tutarda dilpisand va bazm asbobidan ichmak va bag'ishlamaqda bemonand. Tab'i ham nazm uslubida muloyim tushubtur...» [Мажолис ун-нафоис, 1997: 141].

Qit'aning birinchi misrasida shoir Badiuzzamonni "talab bahorida" - shahzodalar orasida o'ziga xos bog' yaratgan "gulbun", ya'ni gul poyasiga

o'xshatadi, uning o'ziga xosligini madh qiladi. "Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da gulbun – gul, gul tupi, deb izohlangan [АХАТИЛ., 1983: 413].

Badiuzzamon Mirzo g'ayrat va shijoat, yurtni boshqarish va sarkardalikda boshqa temuriy shahzodalardan ajralib turishini bildirib o'tadi. Misrada Navoiy o'zaro aloqador va bir-biriga daxldor bo'lgan "bahor", "bog" va "gulbun" so'zlaridan foydalanib tanosub san'atini qo'llagan.

Alisher Navoiy Badiuzzamon Mirzoga umid bilan qarar, uni kelajakda mamlakatni adolat bilan boshqarishi, yurt obodonligi uchun jon kuydirishiga chin yurakdan ishonardi. Shoirning Badiuzzamon Mirzoga bitgan maktublari hamda unga bag'ishlangan she'riy satrlari sinchiklab o'rganilsa, ayon bo'ladiki, Navoiy shahzodani hamisha kuzatib yurgan, uning yutuqlaridan muttasil quvongan. Qit'adagi ikkinchi misrada ham yutuqlari, muvaffaqiyatlari yanada ko'paysin uchun "Bu gulbunungg'a dag'i toza gullar ochilsun" deb tilak bildirgan, davlat boshqaruvidagi yaxshi sifatleri yanada ko'payishini tilagan. Bir o'zakdan yasalgan "gulbun" va "gullar" so'zlari asosida hosil bo'lgan ishtiyoq san'ati qit'a badiiyatini go'zallashtirgan. Uchinchi misrada yana shahzodaning yutuqlarini ta'kidlab, bu holatni "umid bog'i"ning "nihol-u gul" berishiga o'xshatadi. Shuningdek, qit'adagi barcha misralarda "gul" so'zi takrorlanib, takrir san'atining go'zal ifodasini vujudga keltirgan. Navoiy avvalgi misralarda shahzodaning sa'y-harakatlarini maqtab, ularni e'tirof etadi, Badiuzzamonni ruhlantiradi va so'nggi misrani "gulungni" – qilayotgan xayrli ishlarini "haq karami" – Alloh o'z marhamati bilan "emdi borvar qilsun" – endi hosildor qilsin, yanada ziyoda qilsin degan tilak bilan yakunlaydi.

Murofia usulidagi xatlar hukmdorlarga bag'ishlangan bo'lib, ana shunday dabdabali kirish qismiga ega bo'ladi. Bunday usuldagi maktublar duo-tilaklar bilan boshlanib, duo-tilaklar bilan tugaydi. Ularning ayrimlarida Navoiy maktub egalarini erishgan yutuqlari bilan qutlaydi, ba'zilarida davlatni idora etish, hukumat ishlarini bajarishga doir o'zining qimmatli maslahat va takliflarini bayon etadi, adolat hamda hushyorlikka chorlaydi, shahzodalarga nasihatlar qiladi, o'rni kelganda, hatto achchiq ta'na-dashnomlar bergan [Namozov F, 2014].

Olima Suyima G'aniyeva o'zining "Insho san'ati – "Munshaot" nomli maqolasida Navoiyning ziyarak davlat arbobi sifatida siyosiy ixtiloflarni oldini olish, shoh bilan shahzodalar o'rtasidagi nizolarga barham berish va ularni murosaga keltirish yo'lida amaliy choralar ko'rganligi, ana shu maqsadda ba'zan shahzodalarga, xususan, Badiuzzamonga o'gitlar to'la maktublar yo'llaganini alohida qayd etadi [Фаниева С., 1975: 20]

Navoiy Badiuzzamonning xato-kamchiliklaridan mehribon otalardek kuyingan. Bilib turib yo‘l qo‘ygan noto‘g‘ri xatti-harakatlarini esa ro‘y-rost yuziga aytib, uni bu yo‘ldan qaytarishga uringan. O‘z navbatida Badiuzzamon Mirzo ham Navoiyga chinakam ixlos qo‘ygan, uni mehribon ustoz va murabbiy sifatida hamisha e‘zozlardir. Hatto, eng qaltis vaziyatlarda ham shoirning aytganlarini so‘zsiz bajargan, uning so‘zini ikki qilmaslikka intilgan. Badiuzzamon Mirzo Navoiyning ta‘na-dashnomlari, tanbehlarini hamisha e‘tirozsiz qabul qilgan. Navoiy bilan Badiuzzamon o‘rtasidagi munosabatning samimiyligi hozirga qadar bizga ota-bola o‘rtasidagi nazokatli va nafis munosabatni eslatadi.

Ammo shuni ham alohida ta‘kidlash kerakki, sulton Husayn Boyqarodek podshohning bu to‘ng‘ich o‘g‘li barcha temuriy shahzodalar kabi toj-u taxtga nihoyatda o‘ch edi. Uning o‘z otasiga qarshi bosh ko‘tarib isyon olovini yoqqanligi, mamlakat, yurt boshiga g‘oyat katta tashvish va tahlika tug‘dirgani ma‘lum. Ulug‘ shoir Alisher Navoiy otaga qarshi bosh ko‘targan Badiuzzamon Mirzoni otasi bilan yarashtirish uchun ko‘p sa‘y-harakat qilganini “Munshaot”dagi bir qancha maktublardan ham bilish mumkin. Shunday maktublardan birini shoir quyidagi qit‘a bilan yakunlaydi:

Hamisha to anosiri to‘rt ziddayn,

Qilur tarkibi insoniy muvofiq,

Qila ko‘r mahzi insoniyyatingdin,

Nekim azdod erur oni muvofiq [Муншаот, 2016: 108].

Shoir Badiuzzamonga yuborgan bu maktubida ota bilan yurt talashish el boshiga zo‘r falokatlar keltiradi, deb tashvish bildirardi. U shahzodani to‘g‘ri yo‘lga boshqarish uchun jon kuydirar va uni insofqa chaqirardi. “Men bu gaplarni birovning gapi bilan emas, balki ota-bola o‘rtasidagi munosabatdan yaxshi xabardor bo‘lganligi uchun aytaman”, deb alohida uqtirgandi shoir. Bu qit‘ada ham “ziddayn”, “azdod”, “inson”, “insoniyyat” so‘zlari orqali ishtiyoq san‘ati ifodasi hosil qilingan.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, “Munshaot”dagi qit‘alarda maktub sohibining fasohati, dunyoqarashi, ilmining nechog‘li qaviyligi, daqiqiligi hamda nuqtadonligi singari fazilatlarini jo bo‘lgan. Qit‘alarning mazmun mundarijasiga e‘tibor qaratilsa, unda axborot yetkazishdan ko‘ra matn saviyasida yozuvchining mahorati aks etganiga guvoh bo‘lish mumkin. Asar tarkibidan o‘rin olgan qit‘alarda turli badiiy san‘atlar: o‘xshatish, istiora, tashbeh, tanosub va ishtiyoq kabilardan juda ko‘p o‘rinlarda foydalanilgan. Bundan maqsad — adresatga muallif fikrini aniqroq va ta’sirchan shaklda yetkazish bo‘lgan.

ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 1 том. - Тошкент: “Фан”, 1983. - 656 б.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. To‘qqizinchi jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003. - 325 b.
3. Алишер Навоий. “Мажолис ун-нафоис” МАТ. 13-том. - Тошкент: “Фан” нашриёти, 1997 й. - 242 б.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – T.: “Tamaddun”, 2019. – 520 b.
5. Фаниева С. Иншо санъати ва “Муншаот”// Гулистон. № 2. – Т., 1975. – Б. 20-21.
6. Ergashev Q. O‘zbek nasrida insho (Navoiy “Munshaot”i misolida): fil.fan. nomz. diss... . Toshkent, 1996. – 145 b.
7. Исҳоқов. Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2014. - 320 b.
8. Турсунов Ю. “Муншаот” асарининг матний тадқиқи. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2016. – 264 б.
9. Namozov F. Otaga qarshi isyon yoxud shahzoda Badiuzzamon qismati// www.kh-davron.uz.